

BADIIY MATNDA MAKON DEYKSISINING QO‘LLANILISHI

Najmiddinova Mohichehra Qiyomiddin qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti

4-bosqich talabasi

najmiddinovamohichehra03@gmail.ru

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnda makon deyksisining xususiyatlari, uning kontekstga bog‘liqligi hamda turli badiiy asarlar misolida tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Makon deyksisi, badiiy matn, deyktik birliklar, pragmatika.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности пространственного дейксиса в художественных текстах, его зависимость от контекста и анализ на примерах различных художественных произведений.

Ключевые слова: пространственный дейксис, художественный текст, дейктические единицы, прагматика.

Annotation: The article discusses the characteristics of spatial deixis in literary texts, its dependence on context, and its analysis using the examples of various works of art.

Keywords: Spatial deixis, literary text, diegetic units, pragmatics.

Tilshunoslikda badiiy matnni pragmatik jihatdan o‘rganish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki badiiy matn nafaqat estetik zavq bag‘ishlash, balki muallifning ma’lum maqsadni amalga oshirish vositasidir. Har bir asarda muallif o‘z g‘oyasini, munosabatini o‘quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Shuning uchun badiiy matnning pragmatik tahlili asosan muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni o‘rganishga, matnda qo‘llanilgan til vositalarining maqsadga yo‘naltirilganligiga, muallif nutqining ijtimoiy, madaniy, psixologik xususiyatlariga, o‘quvchiga qanday ta’sir ko‘rsatishiga qaratilgan. Badiiy matnning pragmatik tahlilida ayniqsa, deyksis hodisasining roli katta. Deyksis, tilshunoslikda voqea va holatlarning ko‘rsatilishi va ularga nisbatan nutq subyekti (gapiruvchi yoki tinglovchi) nuqtai nazaridan yondashishni anglatadi. Deyksis – (grekcha “*deixis*”) tilshunoslikda leksik va grammatik vositalar bilan ifodalangan til birligining ma’nosi yoki vazifasi sifatidagi ko‘rsatkichdir.

Deyksisining an’anaviy tarzda ajratiluvchi shaxs, zamon va makon deyksisi kabi turlari deyktik birliklarning ishora obyektini ko‘rsatish belgisi asosida belgilanadi. Shunga ko‘ra deyksisning mazkur turlarini hosil qiluvchi markaziy birliklar ajratiladi. Masalan, shaxslarga ishora qiluvchi birliklarga olmoshlar (o‘zbek tilida men, sen; rus

tilda мы, вы), makonga ishora qiluvchi deytik birliklarga o‘rin ravishlari (o‘zbek tilida narida, uzoqda; rus tilida здесь, тут), zamon deysisini yuzaga chiqaruvchi birliklarga payt ravishlari (o‘zbek tilida hozir, bugun, ertalab; rus tilida сегодня, сейчас kabilar) kiritiladi.

Deyksis turlaridan biri bo‘lgan makon deyksisi – badiiy matnda joy, harakat yo‘nalishi, yaqinlik-uzoqlik munosabatlarini anglatish orqali voqealar rivoji va obrazlar harakatini o‘quvchining tasavvurida aniqroq gavdalantiradigan lingvopragmatik hodisadir. U nafaqat til birliklarining joylashuvini, balki matndagi kommunikativ nuqtai nazarning qayerdan turib berilganini ham anglatadi. Makon deyksisi – bu o‘zida nutq egasining joyga nisbatan tutgan pozitsiyasini, hodisalarning fazoviy tartibini va ularning mantiqiy ketma-ketligini ifoda etuvchi til hodisasi bo‘lib, o‘quvchi matnni o‘qiyotganda bu birliklar orqali voqelikni fazoda tasavvur qiladi. Bunday deyksis birliklari har doim kontekstga bog‘langan bo‘lib, ularni to‘g‘ri talqin etish matnning mazmunini anglashda muhim omil hisoblanadi.

Pragmatik jihatdan olayotganda, makon deyksisi turlari turli so‘z vositalari orqali ifodalanadi. Jumladan, joy nomlari, ko‘rsatish olmoshlari, harakat yo‘nalishini bildiruvchi fe‘llar, makonga oid atamalar makon deyksisining ifodalovchi vositalari sifatida qatnashadi. Bu haqda tilshunos N.Abduraxmonov shunday deydi: “Matnda makon ko‘rsatuvchi birliklar muallifning kommunikativ maqsadini ochib berishga xizmat qiladi”.

Makon deyksisida nutq vaziyatiga qarab qo‘llanadigan deytik birliklar mavjud. Shu jihatdan makon deyksisi uchun ushbu tasnif o‘rinlidir:

a) ham so‘zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ko‘rinib turgan va ayon bo‘lgan makonga nisbatan: Bu yerlar menga otamdan meros.

b) so‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon bo‘lgan makonga nisbatan: Bosib olingan barcha joylar bizniki.

Makon deyksisi – bu nutqdagi joy ifodalovchi birliklarning so‘zlovchi yoki tinglovchi turgan o‘ringa nisbatan qo‘llanilishini bildiradi. Bu holatda makon bildiruvchi so‘zlar nutqdagi kontekstga bog‘lanib, joyning nisbiy belgilanishini ta‘minlaydi. Masalan: 1. Shu uyda o‘zing yasharmiding, noinsof? (O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”). Bu jumlada “shu uyda” deyilgan ifoda so‘zlovchining turgan joyiga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, savol aynan uning nuqtai nazaridan berilgan.

2. “Oldingizda kimdir turganini ko‘ryapsizmi?” Bu jumlada esa “oldingizda” deyilgan joy tinglovchining turgan o‘rniga nisbatan ifodalangan. Bu holatda so‘zlovchi suhbatdoshining joylashuviga mos ravishda savol bermoqda.

Deytik birliklarning uzoq yoki yaqindagi makonga ishora qilishini aniqlashda so‘zlovchining o‘rni inobatga olinishi lozim. Mazkur holatda “so‘zlovchi turgan makon va so‘zlovchi o‘zini tasavvur qilgan makon” farqlanadi. Shunga ko‘ra, makon deyksisining quyidagi ichki turlarini farqlash mumkin:

– real makon deyksisi;

– irreal makon deyksisi.

So‘zlovchi muayyan predmet o‘rin olgan makonni o‘zi turgan makonga nisbatan belgilasa, real makon deyksisi, tasavvuridagi makonga nisbatan belgilasa, irreal makon deyksisi namoyon bo‘ladi. Albatta, makonning real yoki irrealligini matn qurshovida aniqlanadi. Masalan: Qishloqning chekkasida, ariq bo‘yida o‘sgan qari tolning shoxlari bahorda yashil yaproqlar bilan burkandi. Mana, shu novdalarda sayroqi qushlar o‘z sayrog‘ini boshladilar. Bu yerda esa, bolalar to‘planishib, turli o‘yinlar o‘ynashardi (A.Qahhor “Sarob”). Ushbu misolda so‘zlovchi o‘zini tabiat manzarasiga yaqin his qiladi va tol shoxlari, qushlar sayrayotgan joy hamda bolalar o‘ynayotgan maydonga “mana”, “bu yerda” deytiklari orqali yaqin masofadan ishora qiladi. So‘zlovchi bu olmoshlar yordamida mazkur makonlarni o‘ziga yaqin hudud sifatida tasvirlaydi.

Quyidagi misolda esa asar qahramoni voqelikni o‘z tasavvuridagi makonda tasvirlaydi: ...U hozir ko‘zlarini yumib, o‘zini keng dalada, bepoyon osmon ostida yotganini xayol qildi. Tashqarida esa qishning sovuq havosi esardi, derazalar muzlagan edi. Shu yerda uning qalbi bahor nafasi bilan to‘lardi, ko‘nglida cheksiz orzular paydo bo‘lardi. U o‘rnidan turib, yengil qadamlar bilan xayoliy bog‘lar ichra sayr qildi (O‘.Hoshimov “Qalbingga quloq sol”). Keltirilgan mikromatnda asar qahramonining o‘zini xayoliy makonda tasavvur qilishi ifodalangan. U o‘zini dalada tasavvur qilgani uchun real makonga “tashqarida” ravishi orqali ishora qilgan. “Shu yerda” deyiktigi esa qahramon tasavvur qilgan makonga (keng dala, osmon ostiga) ishora qilgan.

Makon deyksisini ifodalovchi asosiy birliklarga quyidagilar kiradi:

a) Olmoshlar: Bu, shu, ana u, o‘sha, mana, qani, qayer, hech qayerda, har qayerdan, allaqayer, qayergadir, biz, o‘z kabi birliklar makonni aniq yoki bilvosita ko‘rsatadi: O‘sha ko‘prikmi? Ha, o‘sha yerda bir vaqtlar katta bozor bo‘lardi. Hozir u yerda faqat eski xarobalar qolgan. (T.Malik “Qaldirg‘och”).

b) O‘rin ravishlari: pastda, to‘g‘rida, tubanda, narida, berida olg‘a, oldinda, yaqinda, uzoqda va h.k. Masalan: Narida ko‘prik boshida domlaga Umaraliboy duch keldi. – Ha, domla, Akbarali nima dedi? – Mingboshi dodho hech narsa deganlari yo‘q. (Abdulla Qodiriy. “Kecha va kunduz”).

c) Fe‘llar: Harakat va fazoviy o‘zgarishni ifodalovchi fe‘llar makon deyksisiga xizmat qiladi: bormoq, kelmoq, chiqmoq, tushmoq, o‘tmoq, yurmoq, sakramoq va boshqalar. Masalan: 1. Bola bog‘dan yugurib chiqdi. “Chiqdi” – bir makondan boshqasiga o‘tishni bildiradi. “Bog‘dan” – boshlang‘ich makon. 2. U zinadan pastga tushdi. “Tushdi” – fazoviy pastga harakat. “Zinadan pastga” – makon o‘zgarishini ko‘rsatuvchi birlik.

d) Qo‘shimchalar va ko‘makchilar: -da, -ga, -dan kabi joyga nisbatan fazoviy bog‘liqlikni ifodalovchi affikslar va ko‘makchilar makon deyksisini kuchaytiradi: 1. U maktabdan chiqdi. “-dan” – chiqish yoki harakat boshlanish nuqtasini bildiradi. “Maktabdan” – makon o‘zgarishini ko‘rsatuvchi birlik. 2. Mashina ko‘chaning chetida to‘xtadi. “-da” – joy holatini bildiradi. “Chetida” – makon ichidagi aniq nuqtani bildiradi.

e) Toponimlar va makon nomlari: Aniq joylar va geografik atamalar makon deyksisi sifatida xizmat qiladi: Toshkent, Samarqand, hovli, ko'cha, dalalar, tog'lar va h.k.

f) Nutqdagi ko'rsatishlar va harakat ishoralari: Matnda kontekst orqali makon aniqlanadi: yaqin joy, uzoq joy, yangi kiritilgan makon kabi tushunchalar: 1. – Bu yer juda sokin, menga yoqdi. “Bu yer” – yaqin joyga ishora. Gapiruvchiga yaqin joy kontekst orqali anglashiladi. 2. – U yerda hali hech kim yashamaydi. “U yer” – uzoq joy. Gapiruvchining hozirgi joyidan boshqa makon nazarda tutilgan.

g) Nutqiy vaziyat asosida janub, g'arb, sharq, shimol otlari va ayrim sonlar (yarmi) orqali ham makon deyksisi hosil qilinishi kuzatiladi: 1. Bo'lgan voqeani oyoq ustida turib mingboshiga anglatdi va ahvolni juda vahimalik qilib ko'rsatdi. Uning aytishicha, “mingboshi yetib borguncha qishloqning qariyb yarmi qirilib bitadi”. (Abdulla Qodiriy. “Kecha va kunduz”). 2. Sharqda, islom Sharqida sur'atkashlik din tomonidan man qilingani uchun rivoj topmasdan, din tomonidan tarvij etilgan bu xattotlik san'ati yaxshi taraqqiy qilgan edi. Xo'p, qani... o'qib ko'raylik... (Abdulla Qodiriy. “Kecha va kunduz”).

h) Nutqda mazkur deytik birliklarning dialektal ko'rinishlari: shatta, bo'tta. Masalan: – Sen shattan qimirlamay tur, men hozir bilib kelaman. – Seni tutib olinsa nima qilaman. Men ham bora qolay. (Said Ahmad “Ufq”).

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda makon deyksisi matn ichidagi joy, makon va fazoviy munosabatlarning ishoraviy ifodasini ta'minlaydi. Deyksis hodisasining bu turi asosan matn ishtirokchilarining qaysi nuqtai nazardan makon haqida so'z yuritayotganini ko'rsatadi. Badiiy matnlarda makon deyksisi nafaqat joyni ko'rsatadi, balki voqealarning kechish maydonini, personajlarning o'zaro aloqalarini va ular o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni ham anglatadi. Bunday deyksis birliklari matnda syujet rivoji, voqealarning ketma-ketligi va qahramonlarning harakat trayektoriyasini aniqlashda muhim vazifa bajaradi.

Makon deyksisi, ayniqsa, quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- a) Vaziyatni aniqlashtirish: qahramonlar qayerda ekanligi haqida axborot berish.
- b) Emotsional holatni kuchaytirish: makon tasviri orqali qahramonlarning ruhiy holatini berish.
- c) Syujet dinamikasini ta'minlash: harakat o'zgarishini, o'tishlarni ko'rsatish.

Badiiy matnda makon deyksisi va uni ifodalovchi birliklar nafaqat fazoviy manzara yaratadi, balki syujetning ichki mantiqini, qahramonlarning o'zaro harakatini, hissiy kechinmalarini ham o'zida aks ettiradi. Shu bois, badiiy matnda makon deyksisini tahlil qilish matnning semantik va pragmatik qatlamini chuqur anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov N. Matn lingvistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
2. Апресян Ю. Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира//http://lpcs.math.msu.su/~uspensky/journals/siio/35/35_12APRES.pdf.
3. Давлатова Р.Ўзбек тилининг дейктик бирликлари. Филол. фан. док (DSc)дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 108.
4. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. –Т.: Илм-Зиё-Заковат, 2019.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Т., 2008. – 285 b.
6. Xujamkulova M.B. Sodda gaplarda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. – Т., 2023. – 140 b.
7. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. –Т.: Sharq, 2007.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>